

NIKOH SHARTNOMASI VA VASIYATNOMANING O‘ZARO NISBATI: ER-XOTINNING MULKIY HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI MUAMMOLAR

Axmadov Sherzod Xusniddinovich

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti talabasi

Murodova Elmira

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti “Davlat va huquq asoslari”

kafedrasi o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21786176>

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada fuqarolik va oila huquqining eng dolzarb hamda amaliyotda murakkab muammolarni keltirib chiqaruvchi masalalaridan biri - nikoh shartnomasi va vasiyatnomaning o‘zaro nisbati hamda ushbu institutlar orqali er-xotinning mulkiy huquqlarini himoya qilish mexanizmlari qiyosiy-huquqiy tomondan tahlil etiladi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, Fuqaro kodeksi, "Notariat to‘g‘risida"gi Qonuni hamda Oliy Sud Plenumining tegishli qarorlaridagi konkret normativ qoidalar yillar doirasida atroflicha o‘rganilgan. Maqolada nikoh shartnomasi va vasiyatnomaning yuridik tabiati, ularning amal qilish doirasi, mulkka egalik huquqining o‘tish vaqti va tartibi, er-xotinning umumiy birgalikdagi mulkidagi ulushlarini ajratish tartibida yuzaga keladigan ziddiyatlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, amaliyotda uchraydigan sud-notariat muammolari kompleks tahlil qilinib, amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan asoslantirilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

KALIT SO‘ZLAR

Nikoh shartnomasi, vasiyatnoma, er-xotinning mulkiy huquqlari, umumiy birgalikdagi mulk, notariat amaliyoti, huquqiy muammolar, ulushni ajratish.

KIRISH

Fuqarolik jamiyati va bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsning mulkiy daxlsizligi hamda xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari eng ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 65-moddasiga muvofiq, xususiy mulk daxlsizdir va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Oilaviy-mulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish borasida er-xotin o‘rtasidagi mulkiy va mulkiy bo‘lmagan huquqlarni adolatli va muvozanatli taqsimlash, ayniqsa, er-xotindan birining vafoti holatida boshqasining huquqiy manfaatlarini muhofaza qilish o‘ta muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda respublikamizda notarial va sud amaliyotida er-xotin o‘rtasida nikoh shartnomasi tuzish tendensiyasi ortib bormoqda. Shu bilan birga, vasiyatnoma rasmiylashtirish orqali o‘z mulkini vafotidan so‘ng tasarruf etish istagida bo‘lgan fuqarolar soni ham ko‘paygan. Biroq, amaldagi qonunchilikda nikoh shartnomasining shartlari va vasiyatnoma mazmuni o‘rtasidagi iyerarxik nisbat, bir-birini inkor etuvchi qoidalarining yuridik kuchi hamda vorislik tartibi ochilayotganda nikoh shartnomasining ta’siri yetarlicha aniq va mukammal ifodalanmagan.

Tadqiqotning maqsadi - nikoh shartnomasi va vasiyatnoma institutlarining fuqarolik va oila huquqidagi o‘rnini qiyosiy tahlil qilish, ularning amal qilishidagi huquqiy muammolar va bo‘shliqlarni aniqlash hamda er-xotinning mulkiy huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 5-bobida er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari, xususan nikoh shartnomasining huquqiy maqomi tartibga solingan. Oila

kodeksining 29-moddasiga muvofiq, nikoh shartnomasi — nikohlanuvchi shaxslarning yoki er-xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er-xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvdir.

Nikoh shartnomasining muhim xususiyatlari va amaldagi normativ asoslari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, yuridik shakli va tuzilish vaqti jihatidan Oila kodeksining 30-moddasiga ko'ra, nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar ham, shuningdek nikohda bo'lingan davrda ham tuzilishi mumkin. Shuningdek, nikoh shartnomasi yozma shaklda tuzilib, notarial tasdiqlanishi shart. Notarial rasmiylashtirilmagan nikoh shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas hisoblanadi.

Ikkinchidan, mulk rejimini o'zgartirish ko'lami bo'yicha Oila kodeksining 31-moddasiga muvofiq, er-xotin nikoh shartnomasi orqali qonunda belgilangan umumiy birgalikdagi mulk rejimini o'zgartirishga, ya'ni ulushli mulk rejimini yoki alohida mulk rejimini o'rnatishga haqlidir.

Uchinchidan, mulk turlari va muddatlar bo'yicha shartnoma er-xotinning mavjud mulkiga nisbatan ham, kelgusida orttiriladigan mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Oila kodeksining 31-moddasi 2-qismida nazarda tutilganidek, er-xotin o'zlarining o'zaro mulkiy huquq va majburiyatlarini muayyan muddatlar bilan cheklashga yoki ushbu huquq va majburiyatlarning yuzaga kelishi yoki bekor bo'lishini muayyan shartlarga bog'liq qilib qo'yishga haqlidir.

Amaliyotda nikoh shartnomasining eng asosiy afzalligi shundaki, u er-xotindan birining tadbirkorlik faoliyati natijasida yuzaga keladigan moliyaviy tavakkalchiliklar va qarzdorlik majburiyatlaridan ikkinchi tarafdagi er yoki xotinni muhofaza qiladi. Masalan, er yoki xotin o'z xususiy korxonasining majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lganida, nikoh shartnomasi orqali ikkinchi taraf nomiga rasmiylashtirilgan ko'chmas mulk yoki jamg'armalarga undiruv qaratilishining oldi olinadi. Aniq me'yoriy tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining (1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan) 33-moddasiga muvofiq, notariuslar bitim va shartnomalarni tasdiqlashda taraflarning muomala layoqatini va mulkka bo'lgan huquqiy asoslarini puxta tekshiradilar.

Vasiyatnoma fuqarolik huquqida shaxsning o'ziga tegishli mol-mulkni vafot etgan taqdirda tasarruf etish bo'yicha bir taraflama bitimi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 67-bobi vasiyat bo'yicha merosxo'rlik tartibini belgilaydi. Fuqarolik kodeksining 1120-moddasiga binoan, fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xohish-ishtiyoqi vasiyatnoma deb e'tirof etiladi.

Vasiyatnoma institutining asosiy elementlari quyidagi huquqiy normalarda o'z aksini topgan:

Vasiyat qilish erkinligi prinsipial qoidasi: Fuqarolik kodeksining 1122-moddasiga muvofiq, fuqaro o'zining butun mol-mulkini yoki uning muayyan qismini qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiradigan, shuningdek kirmaydigan bir yoki bir necha shaxsga, yuridik shaxslarga, davlatga vasiyat qilishi mumkin.

Vasiyatnomaning shakli: Fuqarolik kodeksining 1124-moddasiga muvofiq, vasiyatnoma yozma shaklda tuzilishi, tuzilgan vaqti va joyi ko'rsatilgan holda vasiyat qiluvchining o'z qo'li bilan imzolanishi hamda notarial tartibda tasdiqlanishi shart.

Er-xotinning merosdagi huquqlari va majburiy ulush: Fuqaro kodeksining 1142-moddasida merosda majburiy ulush huquqi belgilangan. Unga ko'ra, meros qoldiruvchining voyaga yetmagan yoki mehnatga qobiliyatsiz farzandlari, er (xotini) va ota-onasi, vasiyatnomaning mazmunidan qat'i nazar, qonun bo'yicha meros olganlarida ularning har biriga tegishi lozim bo'lgan ulushning

kamida yarmisini (majburiy ulush) meros qilib oladilar. Er-xotinning umumiy mulkidagi ulushi: Fuqarolik kodeksining 1143-moddasi o'ta muhim norma bo'lib, unda ta'kidlanishicha, tirik qolgan er (xotin)ning meros ochilganda vafot etgan er (xotin) bilan nikoh davomida orttirilgan umumiy mol-mulkdagi o'ziga tegishli ulushga bo'lgan huquqi meros tarkibiga kirmaydi va saqlanib qoladi.

Nikoh shartnomasi va vasiyatnoma o'rtasidagi huquqiy nisbatni o'rganish murakkab nazariy va amaliy muammolarni yuzaga chiqaradi. Har ikkala institut ham mol-mulkning huquqiy rejimiga va uning muayyan shaxsga o'tishiga daxldor bo'lsa-da, ularning huquqiy tabiati, amal qilish vaqti va yuridik oqibatlari tubdan farq qiladi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki:

1. Huquqiy tabiati bo'yicha nikoh shartnomasi ikki taraflama bitim bo'lsa, vasiyatnoma bir taraflama bitimdir.

2. Kuchga kirish vaqti jihatidan nikoh shartnomasi notarial tasdiqlangan va nikoh tuzilgan paytdan kuchga kirsa, vasiyatnoma meros ochilgan (vasiyat qiluvchi vafot etgan) paytdan kuchga kiradi.

3. O'zgartirish va bekor qilish tartibi bo'yicha nikoh shartnomasi taraflarning o'zaro roziligi yoki sud tartibida (Oila kodeksi 33-moddasi) o'zgartirilsa, vasiyatnoma vasiyat qiluvchining bir taraflama irodasi bilan istalgan vaqtda (FK 1127-moddasi) o'zgartirilishi mumkin.

Amal qilish obyekti sifatida nikoh shartnomasi er-xotinning mavjud va kelgusida orttiradigan mulkini qamrab oladi, vasiyatnoma esa vafot etgan paytda vasiyat qiluvchiga tegishli bo'lgan mulkni o'z ichiga oladi.

Boshqa shaxslar huquqlarining cheklanishi borasida nikoh shartnomasi tuzilganda uchinchi shaxslar (kreditorlar) xabardor qilinishi shart (Oila kodeksi 36-moddasi), vasiyatnoma esa maxfiylik prinsipiga ega (FK 1128-moddasi).

Sud va notariat amaliyotining atroflicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, er-xotinning mulkiy huquqlarini muhofaza qilishda quyidagi tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

Majburiy ulush huquqi va nikoh shartnomasining to'qnashuvi: Fuqarolik kodeksining 1142-moddasiga muvofiq, meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz ota-onasi yoki voyaga yetmagan farzandlari majburiy ulush olish huquqiga ega. Agar nikoh shartnomasi bo'yicha barcha mulklar tirik qolgan xotin (er)ning alohida mulki deb e'lon qilingan bo'lsa va vafot etgan erning nomida hech qanday mulk qolmagan bo'lsa, majburiy ulush huquqiga ega bo'lgan vorislarning manfaati qanday himoya qilinadi?

Amaliyotda vafot etgan shaxsning boshqa nikohdan bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz farzandlari yoki keksaygan ota-onalari nikoh shartnomasini Fuqarolik kodeksining 114-116-moddalari va Oila kodeksining 31-moddasi 5-bandiga muvofiq ("shartnoma shartlari er (xotin)lardan birini o'ta noqulay ahvolga solib qo'ysa...") asosan haqiqiy emas deb topish haqida da'vo kiritadilar.

Notariuslarning elektron reestrlaridagi integratsiya muammosi: "Notariat to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, notarial harakatlar Yagona elektron reestr tizimi ("E-notariat") orqali amalga oshiriladi. Biroq, notarius meros ishini ochayotganida va Fuqarolik kodeksining 1143-moddasiga asosan er-xotinning umumiy mulkidagi ulushga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berayotganida, ilgari tuzilgan nikoh shartnomasi mavjudligini avtomatik aniqlash imkoniyati ba'zan axborot uzilishlari sababli murakkablashadi. Bu esa asossiz ravishda meros guvohnomalari berilishiga va sud nizolarining ko'payishiga olib kelmoqda.

Kreditorlar manfaatlarining himoyasi: Oila kodeksining 35-moddasiga asosan, er yoki xotin nikoh shartnomasi tuzayotganligi, o'zgartirayotganligi yoki bekor qilayotganligi to'g'risida o'z

kreditorini xabardor qilishi shart. Ushbu majburiyat bajarilmaganda kreditor majburiyatning bajarilishini shartnoma shartlaridan qat'i nazar talab qilishga haqli. Biroq, amaliyotda vasiyatnoma tuzishda kreditorlarni xabardor qilish majburiyati qonunchilikda nazarda tutilmagan, bu esa vasiyatnoma va nikoh shartnomasi vositasida qarzlarni to'lashdan qochish holatlarini keltirib chiqaradi.

ILMIY-AMALIY TAKLIF VA TAVSIYALAR

Yuqoridagi huquqiy va amaliyot muammolarini bartaraf etish hamda er-xotinning mulkiy huquqiy muhofazasini kuchaytirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi: Oila kodeksining 31-moddasini quyidagi mazmundagi 6-band bilan to'ldirish taklif etiladi: "Nikoh shartnomasida er-xotindan birining vafot etgani taqdirida umumiy mulkdagi ulushlarning taqdirini va u mol-mulkka nisbatan huquqlarning tirik qolgan er (xotin)ga o'tish tartibini belgilovchi shartlar nazarda tutilishi mumkin. Bunda ushbu shartlar vasiyatnomaga nisbatan ustun yuridik kuchga ega bo'ladi."

Fuqaro kodeksining 1143-moddasi matniga aniqlashtiruvchi norma kiritilib, quyidagicha bayon etilishi lozim: "Tirik qolgan er (xotin)ning meros ochilganda vafot etgan er (xotin) bilan nikoh davomida orttirilgan umumiy mol-mulkdagi o'ziga tegishli ulushga bo'lgan huquqi, agar nikoh shartnomasida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, meros tarkibiga kirmaydi va saqlanib qoladi."

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Notarial reestrlarga "Nikoh shartnomalarining yagona elektron bazasi" modulini to'liq integratsiya qilish hamda notarius tomonidan meros ishi ochilgan paytda marhum va uning eri (xotini) o'rtasida nikoh shartnomasi mavjudligini avtomatik ravishda majburiy tekshirish tartibini joriy etish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi "Meros huquqiga oid qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 05-sonli qaroriga alohida qism kiritilib, unda nikoh shartnomasi va vasiyatnoma to'qnashgan hollarda sudlar nikoh shartnomasi belgilagan mulk rejimiga birlamchi huquqiy manba sifatida baho berishi lozimligi haqida tushuntirish berilishi darkor.

XULOSA

Nikoh shartnomasi va vasiyatnomaning o'zaro nisbatini huquqiy tartibga solish er-xotinning mulkiy huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishning zarur shartidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nikoh shartnomasi va vasiyatnoma o'rtasidagi asosiy farq ularning vujudga kelish va amalda bo'lish vaqtida, shuningdek shartnoma xarakteridagi majburiyatlar shakllanishida namoyon bo'ladi. Nikoh shartnomasi er-xotinning mulkiy rejimini hayotlik davridayoq belgilab beruvchi ikki taraflama bitim bo'lganligi sababli, u vafot etgan er (xotin)ning bir taraflama iroda izhori bo'lmish vasiyatnomasiga nisbatan mulkning huquqiy rejimini aniqlashda ustunlikka ega bo'lishi lozim. Taklif etilayotgan qonunchilik o'zgartishlari va "E-notariat" tizimidagi raqamli integratsiyalar sud-notariat amaliyotidagi tushunmovchilik va muammolarga barham beradi, shuningdek er-xotin hamda boshqa vorislarning mulkiy huquqlari munosib himoya qilinishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. (1998-yil 30-aprelda qabul qilingan, 1998-yil 1-sentyabrdan kuchga kirgan).
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqaro kodeksi. (II qismi, 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan)

4. O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuni. (1996-yil 26-dekabr)
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining Qarori. "Meros huquqiga oid qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida", 2011-yil 20-iyul, № 05.
6. Imomov N.F. Fuqarolik va oila huquqi: darslik. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.